



Gulnaz MAMUTOVA,

Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti v.v.b

E-mail: gulnaz.mamutova88@mail.ru

Nukus innovatsiya instituti dotsent, p.f.n G.Izetaeva taqrizi asosida

## METHODOLOGICAL FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL THINKING AND ABILITIES OF TEACHERS

Annotation

This article covers thoughts on methodological factors for the development of Mathematical Thinking and abilities of future teachers. Also, these methodological foundations are in line with the requirements of a democratic society, where principles such as humanity and efficiency are expressed in the education of an individual.

**Key words:** Future mathematics teacher, mathematical thinking, mathematical ability, pedagogical heritage, interactive technologies.

## O'QITUVCHILARNING MATEMATIK TAFAKKUR VA QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'rajak o'qituvchilarning matematik tafakkur va qobiliyatlarini rivojlantirishning metodologik omillari haqida fikrlar yoritilgan. shuningdek, bu metodologik asoslar demokratik jamiyat talablariga mos bo'lib, ularda shaxsga ta'lim-tarbiya berishda insonparvarlik va samaradorlik kabi tamoyillar o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** Bo'rajak matematika o'qituvchisi, matematik tafakkur, matematik qobiliyat, pedagogik meros, interfaol texnologiyalar.

## МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И СПОСОБНОСТЕЙ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье рассмотрены методологические факторы развития математического мышления и способностей будущих учителей. Также эти методологические основы соответствовали требованиям демократического общества, в которых нашли свое выражение такие принципы, как гуманность и эффективность в воспитании личности.

**Ключевые слова:** Будущий учитель математики, математическое мышление, математические способности, педагогическое наследие, интерактивные технологии.

**Kirish.** Respublikamizda yosh avlodni matematikaga o'rgatish tizimini tubdan o'zgartirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or metodlarini joriy qilish orqali matematik tafakkuri va qobiliyatları rivojlangan mutaxassislarini tayyorlashga zamin yaratildi. Bo'rajak mutaxassislar uchun jahon tsivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqatni rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirildi. «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi» da davlat tomonidan yoshlar bilan ishslash siyosatini takomillashtirish, intellekutal rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, matematikaga oid fanlarni chuqur o'rganish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchilarini matematik tafakkuri va qibiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun mazkur masalaning metodologik asoslarini ishlab chiqish taqzoza etiladi.

Matematik olim V.A. Kruteskiy ko'p yillik tadqiqotlari natijasida matematik qobiliyatlar tuzilishida quyidagi asosiy tarkibiy qismalarni ajratib ko'rsatadi:

➤ matematik materialni formalashtirib idrok qilish, ya'ni aniq masalada uning matematik formasini tezgina sezib ola bilish;

➤ matematik ob`ektlarni, nisbatlarni va amallarni tez va keng ravishda umumlashtirish;

➤ matematik mulohaza jarayonini va tegishli amallar sistemasini «ixchamlash», ya'ni mulohazaning bazi oraliq guruhlarini o'z-o'zidan ma'lum faraz qilib tashlab ketish;


➤ matematik masalalarini echishda fikrlash jarayonining uyg'unligi;

➤ to'g'ri fikrlashdan teskari fikrlashga tez o'ta bilish imkoniyati;

➤ aqliy zo'riqishni o'ziga xos tejashga harakat qilish – matematik masalalarini, aniq algoritm bo'yicha bosqichma-bosqich echishga intilish;

➤ matematik xotira.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahili.** Pedagog olimlarning ta'rifiga ko'ra, metodologiya – tadqiqot usullari va asoslar bo'lib, unda tahvil, sintez, umumlashtirish va modellashtirish kabilar amalga oshiriladi. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonida matematika o'qituvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish asosları, vositalari va usullarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir (1-rasm).



1-rasm. Asosiy metodologik omillar.

Bu metodologik asoslar demokratik jamiyat talablariga mos bo'lib, ularda shaxsga ta'lim-tarbiya berishda va ularning tafakkurini shakllantirishda insonparvarlik, demokratik, yo'naltiruvchanlik, samaradorlik kabi tamoyillar o'z ifodasini topgan. Bo'lajak matematika o'qituvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish aynan mana shu jihatlarni metodologik asos sifatida qabul qiladi va unda «shaxs ongini» boshqarish emas, aksincha, uning matematik tafakkurini boyitish, yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish birlamchi g'oya hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'lajak matematika o'qituvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishning muhim metodologik asoslaridir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bir necha normalar belgilanganki, ular asosida oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak matematika o'qituvchilarining matematik tafakkurini me'yoriy va huquqiy asoslarini shakllantirish mumkin. «Har kim bilim olish huquqiga ega», demak bo'lajak matematika o'qituvchilariga matematika asosları bo'yicha bilim berish taqoza etiladi. Bunday bilim matematik tafakkurning asosiy tushunchalar bilan chiqur tanishtirish, matematik bilimming nazariy va amaliy vositalari bilan qurollantirishga asoslanadi.

Xuddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari kabi me'yoriy hujjatlarda ham bo'lajak matematika o'qituvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirishning metodologik omillari mavjud. Chunonchi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning 3-moddasiga binoan matematik tafakkurni rivojlantirishda quyidagilarni asosiy maqsad sifatida belgilash mumkin:

- matematik tafakkurni rivojlantirishda ta'lim-tarbiya berishga asoslanishi;
- matematik tafakkurni rivojlantirishni uzlucksiz va izhil amalga oshirishi;
- matematik tafakkurda bilimli bo'lishga erishish.

Ma'lum bo'ladiki, ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda bo'lajak matematika o'qituvchilarida matematik tafakkur asoslarini shakllantirish bo'yicha ma'lumotlar etarli darajada o'z ifodasini topgan. Bu omillar muhim tayanch vazifasini bajaradi.

**Tahlil va natijalar.** Ajdodlarimiz bizga inson mehnatining minglab ajoyib namunalari, sanat, fan, adapbyotga doir jahonga mashhur asarlarini qoldiganlar. Ular azaldan yosh avlod ta'lim-tarbiyasini o'zlarining eng muhim vazifalari sifatida ko'rganlar. Asrlar mobaynida insonga ta'lim-tarbiya berishning asosiy tamoyillarini hisobga olgan xalq pedagogikasi rivojlanib va takomillashib kelgan. Yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash xalq pedagogikasining asosiy yo'nalashlaridan biri bo'lgan.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak matematika o'qituvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirishda pedagogik meros muhim metodologik omillardan hisoblanadi. Chunki ulkan pedagogik merosimizdan yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va jismoniylaridan barkalom voyaga etkazish tajribasi mujassam bo'lgan. Mazkur masalada quyidagilarga e'tibor berish muhimdir:

1) Muso Xorazmii, Axmat Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Abu Nasr Ibn Iroqning matematika, algebra, astronomiya va trigonometriya fanlaridan erishgan ilmiy yutuqlari matematik tafakkurni rivojlantirish ishining ilmiy asoslari va faktlari bilan ta'minlaydi.

2) Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobi ijtimoiy qarashlari matematik tafakkurni rivojlantirish ishining amaliy omili hisoblanadi.

Diqqat qilinsa, pedagogik merosimiz bo'lajak matematika o'qituvchilarida matematik tafakkurni shakllantirishning muhim pedagogik asoslaridir[1].

Bo'lajak matematika o'qituvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirishning muhim metodologik asoslaridan yana biri – bu zamonaliviy pedagogik texnologiyalardir. Pedagog olimlarimiz bu borada butunlay yangicha texnologiyalarni asoslab bermoqdalar. Pedagogik texnologiyalar bo'lajak matematika o'qituvchilarini quyidagilar bilan qurollantiradi:

- matematik tafakkurning didaktik asoslarini chiqur bilish;
- matematik tafakkurni rivojlantirishning optimal vositalari va metodlarini talab darajasida o'zlashtirish;
- matematik tafakkurni rivojlantirish uchun innovatsion, media ta'lim, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni egallash;
- matematik tafakkurning pedagogik ko'nikma, malaka va tajribalari bilan qurollantirish va h.k.

E'tibor berilsa, zamonaliviy pedagogik texnologiyalar matematik tafakkurni shakllantirish uchun butunlay yangi pedagogik tajriba bilan qurollanish imkonini beradi.

O'rta asrlar qomusiy olimi Abu Ali Ibn Sino o'z asarlarida o'quvchilarining yakka-yakka emas, jamoa bo'lib, birkalikda o'qitish tarafidori bo'lgan. Ibn Sino o'quvchilarini birkalikda, jam bo'lib o'qishga yo'naltirigan. Bunday hamkorlikda o'qitish ularda o'zlashtirishga intilishni kuchaytirishga, har bir o'quvchining o'zaro musobaqalashish istakalari rivojlanishiga, mavjud iqtidorni ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Bularning barchasi o'quvchilarining yaxshi o'qishini, ijodiy fikrlashini ta'minlashga zamin yaratadi. O'quvchilar ijodiy va mantiqiy fikrlashga yo'naltirilmasa, o'quv jarayonida faol shaxsga aylanmasa, hech qachon ularni ongli o'zlashtirishga erishib bo'lmaydi. Bunday kelib chiqadigan xulosa shuki, ta'limda ta'lim oluvchilarining ta'lim-tarbiya jarayonining faol ishtiroychisiga aylanishlari uchun har bir pedagog zamonaviy axborot-kommunikatsion va

innovatsion pedagogik texnologiyalardan xabardor bo'lishi va ulardan dars jarayonida samarali foydalana olishlari zarur. Interfaol metodlar aynan talabalarning yuqorida e'tirof etilgan sifatlarini tarbiyalashda, ijodkorlikka, matematik tafakkuri va qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirish borasidagi eng samarallar usullar jamlanmasidir.

Innovatsion ta'limguhitida yangicha tafakkur tarzi mujassamlashgan bo'lib, u insonni aqliy faoliyatining o'ziga hos bir tarizda iqtisodiy va madaniy jarayonlar, maishiy yoki ijtimoiy, xususiy-kasbiy muammolarga doir munosabatda bo'lishda ilm-fan va texnika yutuqlar hamda ishlab shaxsiy tajribaga tanyagan holda yo'l tutishida o'z aksini topadi. A.Adams, A.Maslou, F.Taylor va boshqlarning ishlari, bu «yangilikni kiritish» deya ko'rsatiladi. Chunki bu jarayon, o'ziga xos aqliy operatsiya hisoblanib, mutaxassisdan idrok, tasavvur, xotira va diqqat darajalarini rivojlanganligiga, ularning faoliyatini natijasiga tayanishni taqozo etadi [2].

Innovatsion ta'limguhitida birinchi navbatda professor-o'qituvchilar va talabalarning hamkorligi, ta'limguhit tashkil etishga ishtirok etayotganlarning kompetentligi, jamiyatda ta'limguhit olishga bo'lgan ehtiyojni namoyon bo'lishi, ilmiy tadqiqotlar natijasini amaliyotga joriy etish tezligi, ishlab chiqarish va fan-texnikaning aloqadorligi kabilarning ta'siri muhim hisoblanishi kerak.

Dars jarayonida innovatsion usullardan kam foydalanish, dastur va darsliklarda muayyan topshiriqlar, maxsus metodikaning ishlab chiqilmaganligi natijasida masala echimi ijobjiy hal qilinmayotganligi aniqlangan. Demak, bugungi kunda bilimli, mahoratlari bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashsha innovatsion ta'limguhitida texnologiyalarning samarali yo'llarini topish, ularda bilish motivlarini rag'batlanishir hamda o'qitishning shakl va mazmunini boyitgan holda erishish mumkin.

Davrning o'ta dolzarb ushbu talabidan kelib chiqqan holda respublika mijiyosida oliy ta'limguhit muassasalarining faoliyatiga innovatsion ta'limguhit texnologiyalarni tatbiq etish borasida bir qator quyidagi ijobjiy ishlarni amalga oshirish lozim:

- bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion ta'limguhit texnologiyalar mohiyatidan xabardor etish imkonini yaratuvchi o'quv manbalari (darslik, o'quv qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, metodik tavsiyanoma hamda risolalar)ning yaratilishiga alohida e'tibor berish;
- ularni innovatsion ta'limguhit texnologiyalar asoslarini xususidagi bilimlardan xabardor etish maqsadida ularning kasbiy malakalarini oshirishga yo'naltirilgan qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish;
- bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashda tashabbuskor pedagoglarning innovatsion ta'limguhit texnologiyalarni qo'llash borasidagi ilg'or ish tajribalarini keng ommalashtirish.

**Xulosa va takliflar.** Matematikada mantiqiy tafakkur rivojlanishi inson uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi qadim zamondardanoq ma'lum edi. Tafakkurning matematik usuli haqida, har qanday ixtisosdagi mutaxassislarining uni bilishi kerakli haqida gapirar ekanmiz, bunda mantiqiy tafakkurning yuqori sifatlari: anqlik, qisqalik, tartiblanganlik, hatto kichkina bo'lsa ham soxtalikka yo'l qo'ymaslik, to'la dalil keltirish va

#### ADABIYOTLAR

1. Tolipov O'. Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –Toshkent: «Innovatsiya-Xiyo», 2019. – 276 b.
2. Davies J.Ch. Maslow and Theory of Political Development. Getting to Fundamentals // Political Psychology. 1991. Vol. 12. N 3. –P. 416-417.
3. Mamutova, G. S. (2022). Practical technological system for the development of information communicative competence of future teachers based on digital technologies. NeuroQuantology, 20(22), 1586.
4. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштириши ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Пед.фунд.док. ... дисс. – Тошкент, 2007. –Б.5.
5. Tolipov O'. Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –Toshkent: «Innovatsiya-Xiyo», 2019. – 276 b.

hokazolar tushiniladi. Albatta har bir fan o'qituvchisining aqliy kuchini rivojlantirish kerak. Lekin, mantiqiy tafakkurning shakllanishida matematika so'zsiz birinchi darajali ahamiyatga egadir, chunki u, sohta da'volar bilan uzyiy kelisha olmaydi, u soxta fikrlarni haqiqatga o'xshatib ko'rsatishdan ko'ra rad qilishni afzal ko'radigan noyob fanlardan biridir. Ana shuning uchun ham matematika o'qituvchisining jamiyat oldida mas'uliyati juda kattadir, chunki tafakkur stili ko'p jihatdan o'qitish stilliga bog'liqdir.

Matematik tafakkurni egallashning muhimligi haqida umumiyl o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va olyi ta'limguhit o'qituvchilar bilan o'tkazilgan davra-suhbatlarida ko'pincha:

«Matematikaga qobiliyat yo'q» - degan gaplarni eshitamiz.

Matematik qobiliyat nima? Uni rivojlantirish mumkinmi?

Matematik qobiliyatni quyidagicha ifodalash mumkin:

- hisoblash qobiliyat, bu, murakkab algebraik shakllarni almashtira bilish bilan xarakterlanadi;
- mantiqiy tafakkur qobiliyat - izchil, to'g'ri qismlarga ajratilgan mantiqiy mulohaza san'ati;
- fazoviy tasavvur yoki geometrik intuitsiya.

Matematik qobiliyatning turli tomonlari turli kombinatsiyalarda uchrashi mumkin, bunda hatto bulardan yolg'iz bittasining rivojlanishi ham ba'zan ajoyib natijalarga va kashfiyotlarga olib kelishi mumkin. Shuni ham aytish mumkinki, matematikaning turli tadbiqlari ham bu qobiliyatlarining bir xilda rivojlanishini talab qilmaydi, bir sohada hisoblash uchun yaxshi algoritmi topish muhimroq bo'lsa, boshqa sohalar uchun mantiqiy fikrlab bilish muhimdir. Shu sababli professor-o'qituvchi bo'lajak matematika o'qituvchilarining turli matematik qobiliyatlarini rivojlanishiga uchun keng yo'l ochib berishi kerak [3,12].

Matematik qobiliyatlar murakkab, ya'ni tarkibiy qismlardan iboratdir. Masalan, mantiqiy fikrlesh qobiliyat ko'p komponentlarni o'z ichiga oladi: bular analiz qilish, umumlashtirish, abstraktsiyalash va shunga o'xshash qibiliyatlardan iboratdir.

Bu masalani hal qilish uchun guruhdagi butun o'quv ishlarni «o'rtacha» biladigan talabaga moslashtirish yaramaydi, bu bilan qobiliyatli va kam qobiliyatli talabalarga zarar etkaziladi. Ravshanki, guruhdha mustaqil ishlarga ham katta ahamiyat berish kerak. Bunda ular matematik tafakkurning kuchli yoki kuchsiz tomonlariga moslab ish olib borishlari lozim. bundan, matematikaga doir didaktik materiallar (tarqatma topshiriqlar, daftarlari, bosma varaqlar va boshqalar)da dastur materiallarni o'zlashtirishning emas, balki maxsus matematik qobiliyatlarini rivojlanishini nazarda tutish ham lozimligi kelib chiqadi. Aniqroq qilib aytganda, matematik tafakkur va qobiliyat matematikadan umumiyl o'rta va olyi ta'limguhit dasturining butun bo'limlarini o'rganish davomida rivojlanishishi kerak. Bu hol matematik haqiqatga erishishga, ular bilan bog'liq bo'lgan izlanishlarga, sinashlar, xatolarga, aqliy mehnat usullarini anglashga alohida e'tibor berishga majbur qiladi. O'qituvchining barcha ishlar metodikasi ana shu qoidalarga asosan tuzilishi kerak deb hisoblaymiz.